



SALIB YURISHI ISHTIROKCHILARINING XORAZM DAVLATI VA SHARQDAGI XRISTIANLAR XUSUSIDAGI TASAVVURLARI

Kucharov Jamshid Qulnazarovich,

Qarshi davlat universiteti Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20751181>

Annotatsiya. Mazkur maqolada salib yurishlari davrida G'arbiy Yevropa xristian dunyosining Xorazm davlati hamda Sharqdagi xristianlar haqidagi tasavvurlari tahlil qilingan. Unda qirol Jon va qirol David haqidagi afsonalarning shakllanishi, mo'g'ullar va nestorianlarning salibchilar ongidagi o'rni, shuningdek, Xorazmshohlar davlatining Yaqin Sharq siyosiy jarayonlaridagi roli yoritilgan. Maqolada Sharqdagi xristian jamoalari, katolik missionerlar faoliyati hamda mo'g'ullar davridagi diniy bag'rikenglik masalalari tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, "xorazmliklar" ning salibchilarga qarshi kurashdagi o'rni va musulmon dunyosini himoya qilishdagi hissasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: salib yurishlari, Xorazmshohlar davlati, nestorianlar, qirol Jon afsonasi, mo'g'ullar, Sharqdagi xristianlar, missionerlik, Jaloliddin Manguberdi, diniy bag'rikenglik, Amir Temur.

Аннотация. В данной статье анализируются представления участников крестовых походов о государстве Хорезмшахов и христианах Востока. Освещаются легенды о царе Иоанне и царе Давиде, место монголов и несториан в мировоззрении крестоносцев, а также роль государства Хорезмшахов в политических процессах Ближнего Востока. На основе исторических источников исследуются деятельность католических миссионеров, положение восточных христианских общин и религиозная терпимость в эпоху монгольского владычества. Особое внимание уделено роли «хорезмийцев» в борьбе против крестоносцев и их вкладу в защиту мусульманского мира.

Ключевые слова: крестовые походы, государство Хорезмшахов, несториане, легенда о царе Иоанне, монголы, восточные христиане, миссионерство, Джалолиддин Мангуберди, религиозная терпимость, Амир Темур.

Abstract. This article analyzes the perceptions of the Crusaders regarding the Khwarazmian state and Eastern Christians during the Crusades. It examines the formation of the legends of King John and King David, the role of the Mongols and Nestorians in the Crusaders' worldview, and the political significance of the Khwarazmshahs in the Middle East. Based on historical sources, the article explores the activities of Catholic missionaries, the condition of Eastern Christian communities, and religious tolerance during the Mongol era. Special attention is also given to the role of the Khwarazmians in the struggle against the Crusaders and their contribution to the defense of the Muslim world.

Keywords: Crusades, Khwarazmian state, Nestorians, legend of King John, Mongols, Eastern Christians, missionary activity, Jalal al-Din Manguberdi, religious tolerance, Amir Temur.

Kirish. Tarixiy adabiyotlarda o'rta asrlar davri G'arbiy Yevropa xristian davlatlarida diniy mutaassiblik kuchaygan, Rim papalari siyosiy va diniy jihatdan katta ta'sirga ega bo'lgan davr sifatida tavsiflanadi. Aynan shu davrda musulmonlar qo'l ostidagi Quddus shahrini ozod etish, xristianlikni targ'ib qilish hamda Iso payg'ambar qabrini "g'ayridinlar" dan xalos etish shiori ostida musulmon davlatlariga qarshi sakkiz



marotaba salib yurishlari amalga oshirilgan. Fundamental tarixiy manbalarda ushbu yurishlarning asosan dastlabki toʻrttasi keng yoritilgan boʻlib, keyingi yurishlar “koʻlami va ahamiyati kichikroq” degan sabab bilan yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Shu bilan birga, oʻz davrining qudratli davlatlaridan biri boʻlgan Xorazmshohlar davlatining mazkur siyosiy va diniy jarayonlardagi oʻrni ham koʻplab tadqiqotlarda yetarlicha ochib berilmagan.

Adabiyotlar tahlili. Maqolani yozishda foydalanilgan adabiyotlar salib yurishlari davri, Xorazmshohlar davlati, moʻgʻullar istilosi hamda Sharqdagi xristian jamoalari tarixini yoritishga bagʻishlangan muhim ilmiy va tarixiy manbalardan iborat.

V. V. Bartoldning “Turkiston moʻgʻullar istilosi davrida” asari Xorazmshohlar davlatining siyosiy tarixi va moʻgʻullar bosqini jarayonlarini oʻrganishda asosiy ilmiy manba hisoblanadi. L. N. Gumilyovning “Qadimgi turklar” asari esa mintaqadagi etnik va tarixiy jarayonlarni tushunishda nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Ibn al-Asirning “Al-Komil fit-tarix” asari salib yurishlari va Xorazmshohlar davri voqealarini yorituvchi eng muhim oʻrta asr manbalaridan biridir. Plano Karpini asari esa moʻgʻullar davridagi Sharq haqidagi Yevropa tasavvurlarini oʻrganishda qimmatli maʼlumot beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada salib yurishlari ishtirokchilarining Xorazm davlati hamda Sharqdagi xristian aholi haqidagi tasavvurlari, afsonaviy qarashlari va siyosiy-diniy maqsadlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Tahlillar va natijalar. Salib yurishlari davrida Sharq haqidagi tasavvurlar.

XII asrning ikkinchi yarmi – XIII asr boshlarida dunyo siyosiy xaritasida katta oʻzgarishlar yuz berdi. Musulmon dunyosi bir tomondan Gʻarbdan salibchilar bosimiga, ikkinchi tomondan Sharqdan moʻgʻullar istilosiga duch keldi. Oʻrta Osiyoda qoraxitoylar, naymanlar va moʻgʻullarning dastlabki harbiy muvaffaqiyatlari Gʻarb xristian dunyosida katta qiziqish uygʻotdi. Natijada ushbu xalqlar xristian diniga eʼtiqod qiluvchi “Sharqdagi dindoshlar” sifatida talqin qilina boshlandi.

Ayniqsa, 1141-yildagi Qatvon jangida saljuqiy hukmdor Sulton Sanjarning qoraxitoylardan magʻlubiyatga uchrashi Yevropada “Rohib qirol Jon” (Prester John) haqidagi afsonaning shakllanishiga sabab boʻldi. Gʻarb muarrixlari va xronikalarida Sharqdagi nomaʼlum xristian hukmdor musulmonlarga qarshi kurash olib borayotgani haqidagi maʼlumotlar keng tarqaldi. Freyzingenlik Otto xronikasida ham ushbu afsona aks etib, Sharqdagi nestorian xristianlarning musulmon davlatlari ustidan gʻalaba qozongani haqidagi xabarlar tilga olinadi.

Shuningdek, 1220-yilda moʻgʻullarning Xorazm davlatiga bostirib kirishi haqidagi xabarlar Misrdagi Damiatta portida toʻplangan beshinchi salib yurishi ishtirokchilari orasida “qirol David”ning Bagʻdod sari yurishi sifatida qabul qilingan.



Bu esa salibchilar orasida musulmonlarga qarshi Sharqdan yordam kelishi haqidagi umidlarni yanada kuchaytirgan.

Xorazmshohlar va Sharqdagi xristian afsonalari

Tarixiy manbalarda qirol David obrazi ayrim hollarda naymanlar hukmdori Kuchluk yoki Muhammad Xorazmshoh bilan bog‘langanligi qayd etiladi. Kuchlukning xotini nestorian xristian bo‘lgani va uning musulmonlarga nisbatan diniy ta‘qib siyosatini yuritgani tarixiy jihatdan ma‘lumdir.

Muhammad Xorazmshohning esa xristian afsonalarida “Sharq hukmdori” sifatida gavdalanishiga uning 1216–1217-yillarda Bag‘dod xalifasi Nosirga qarshi yurishi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Xorazmshoh tomonidan Aloulmulk Termiziyning xalifa deb e‘lon qilinishi ham G‘arbda turlicha talqin qilingan. Chunki alaviylik ta‘limotida xristianlikdagi muqaddas uchlikka o‘xshash diniy qarashlar mavjud edi. Shu bois Yevropada Muhammad Xorazmshoh musulmon dunyosiga qarshi harakat qilayotgan “Sharqdagi xristian hukmdor” sifatida tasvirlangan.

Bu kabi afsona va tasavvurlar salibchilarning Sharqqa bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni yangi yurishlarga ruhlantirgan. Ayniqsa, salib yurishlari muvaffaqiyatsizlikka uchray boshlagan bir davrda bunday afsonalar diniy ruhiyatni mustahkamlash vositasiga aylangan.

Sharqdagi nestorianlar va missionerlik faoliyati

XIII asrda O‘rta Osiyo hududida nestorian xristianlar sezilarli mavqega ega bo‘lgan. Plano Karpini va Gilom de Rubruk kabi sayohatchilar o‘z xotiralarida Yettisuv, Qoyaliq va Issiqko‘l atroflarida nestorian qishloqlari va cherkovlari mavjudligini yozib qoldirganlar. Rubrukning ma‘lumotlariga ko‘ra, ayrim nayman va kerait hukmdorlari ham xristianlikka e‘tiqod qilgan.

Mo‘g‘ullar istilosi davrida nestorian keraitlar, naymanlar va uyg‘urlar Chingizxon saroyida katta ta‘sirga ega bo‘lgan. Mo‘g‘ullar tomonidan diniy bag‘rikenglik siyosatining yuritilishi xristian missionerlarining faoliyatiga qulay sharoit yaratdi. Rim papalari Sharq va G‘arb cherkovlarini birlashtirish hamda musulmonlarga qarshi mo‘g‘ullar bilan ittifoq tuzish maqsadida ko‘plab elchilar yuborganlar.

1253-yilda Fransiya qiroli Lyudovik IX topshirig‘i bilan Sharqqa yuborilgan Gilom de Rubruk mo‘g‘ullar saroyidagi nestorianlar haqida batafsil ma‘lumot bergan. Keyinchalik katolik missionerlari Samarqand va Olmaliqda faoliyat yuritib, bu yerda katolik yeparxiyalari tashkil etilgan.

Salibchilar, Ayubiylar va “xorazmliklar”

Yaqin Sharqdagi siyosiy vaziyat ham murakkab bo‘lib, musulmon hukmdorlari o‘rtasida ichki kurashlar davom etgan. Shu sababli ayrim hollarda salibchilarga qarshi kurashda musulmon davlatlari va xorazmliklar o‘zaro ittifoq tuzganlar.



Jaloliddin Manguberdi Ayubiylar sulolasining ichki kurashlariga faol aralashgan. Tarixiy manbalarga koʻra, Malik al-Muazzam oʻz akalariga qarshi kurashda Jaloliddin yordamiga tayanib, hatto uning nomini xutbaga qoʻshib oʻqitgan. Ayrim manbalarda Jaloliddin nomidan tangalar ham zarb etilgani aytiladi, biroq bu masala hali toʻliq tasdiqlanmagan.

Shunga qaramay, “xorazmliklar” salibchilarga qarshi kurashlarda muhim rol oʻynagan va musulmon davlatlarini salibchilar xavfidan himoya qilishda katta hissa qoʻshganlar.

Amir Temur davrida diniy bagʻrikenglik

Gʻarb manbalarida Amir Temur koʻpincha diniy mutaassib hukmdor sifatida tasvirlansa-da, tarixiy manbalar uning davlatida turli xristian mazhablari erkin faoliyat yuritganini koʻrsatadi. Bu davrda nestorianlar, arman cherkovi, gruzin cherkovi, yakovitlar va boshqa xristian jamoalari oʻz diniy eʼtiqodlarini erkin amalga oshirganlar. Amir Temurning harbiy yurishlari diniy emas, asosan siyosiy maqsadlarni koʻzlagan. Shu sababli ayrim cherkovlarga zarar yetgan boʻlsa-da, bu diniy taʼqib siyosati emas, urush oqibatlari bilan bogʻliq boʻlgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, salib yurishlari davrida Sharq mamlakatlari haqidagi tasavvurlar Yevropada keskin kengaydi. Dastlab afsonaviy xarakterga ega boʻlgan “Sharqdagi xristian hukmdorlar” haqidagi qarashlar keyinchalik siyosiy va missionerlik faoliyatiga ulanib ketdi. Qirol Jon va qirol David haqidagi rivoyatlar salibchilarning Sharqqa boʻlgan umidlarini mustahkamlab, musulmonlarga qarshi kurashda Sharqdan yordam kelishiga ishonch uygʻotgan.

Shu bilan birga, Xorazmshohlar davlati va “xorazmliklar” salibchilarga qarshi kurashlarda muhim oʻrin egallab, musulmon dunyosini himoya qilishda katta tarixiy rol oʻynaganlar. Oʻrta Osiyoda esa diniy bagʻrikenglik anʼanalari saqlanib qolib, turli diniy jamoalar bir hududda faoliyat yuritganligi tarixiy manbalar orqali tasdiqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Bartold V. V. Turkiston moʻgʻullar istilosi davrida. – Toshkent: Sharq, 1990.
2. Gumilyov L. N. Qadimgi turklar. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Ibn al-Asir. Al-Komil fit-tarix. – Bayrut, 1965.
4. Plano Karpini. Moʻgʻullar tarixi. – Moskva: Nauka, 1997.
5. Karimov Sh. Oʻrta Osiyoda diniy bagʻrikenglik tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2018.